

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI

4-bosqich 407 -guruh talabasi

Xakimov Abbosxon Orifjon o'g'lining

bakalavr darajasini olish uchun

**MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA METODIK ISHLARNI
TASHKIL ETISH SHAKLLARI
MAVZUSIDAGI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar : _____ p.f.n M. Abdullayeva

NAMANGAN - 2016

REJA:

KIRISH

I Bob. Maktabgacha ta'lim muassasalarida metodik ishlarni tashkil etish shakllari – pedagogik muammo sifatida

- 1.1. Metodik ishlarni tashkil etish va rahbarlik qilish
- 1.2. Maktabgacha ta'lim muassasalarida metodik ishlarni tashkil etish imkoniyatlari
- 1.3. Maktabgacha tarbiya muassasasi ishini baxolash mezonlari

II Bob. Maktabgacha ta'lim muassasalarida metodik ishlarni tadbiq etishning shart- sharoitlari

- 2.1. Maktabgacha ta'lim muassasalarida metodik kabineti ishiga qo'yiladigan talabalar
 - 2.2. Maktabgacha tarbiya bo'yicha metodik ishlarni tashkil qilish vazifalari, mazmuni va shakllari.
 - 2.3. Maktabgacha ta'lim muassasalarida metodik ishlarni tashkil etishda mehnat muhofazasi
 - 2.4. Tajriba ishlari tahlili.
- Xulosa va tavsiyalar.
- Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik yillarida Prezidentimiz tashabbusi, tinimsiz sa'y-harakatlari bilan respublikamizda har tomonlama yetuk "Barkamol avlod", komil insonni tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Barkamol avlodni tarbiyalash hamisha insoniyatning eng ezgu va eng ulug' orzularidan biri hisoblanib kelinadi. Agar tarix sahifalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, Al-Farobiyning "Fozil odamlar shaxri" asarida jamiyatdagi har bir bilimli inson fozil odamdir. Bunday inson o'zi yashayotgan davlatdagi barcha qonun va qoidalarga e'tiborli va unga amal qiluvchi, o'z kasbining ustasi bo'ladi deb ta'kidlangan.

1997-yil 29-avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning hayotga tadbqiq etilishi, mamlakatimizda yangi o'quv tizimining vujudaga kelishiga hamda zamonaviy bilimga ega bo'lgan yosh mutahassislarni tayyorlashga zamin yaratadi.

O'zbekiston xalqi o'z oldiga huquqiy demokratik jamiyat qurish maqsadini qo'ygan. Bu yo'lda birinchi, lekin juda muhim qadamlar qo'yilgan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining hayotga tadbqiq etilishi xalqaro jamiyatda o'z o'rnimizni mustaxkamlashga olib keladi. Negaki dunyoning bugungi rivoji shunday bir mavqedaki, hal qiluvchi omil harbiy qudratda emas, balki intellektual salohiyatda, fikrda, aqlida, ilg'or texnologiyalardadir. Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan ta'kidlangan "Kuch – bilim va tafakkurda" degan hikmat bugun va ertangi kun uchun aytilgandir.

Jamiyatni ma'naviy yangilashdan ko'zlangan bosh maqsad – yurt tinchligi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi ko'pdan-ko'p muhim masalalardan iborat.

Yurtboshimiz aytadilar: "Endigi eng dolzarb vazifamiz bu jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslarini, ularning yangidan-yangi qarorlarini mukammal ochib berishni, o'quvchilarimiz, talabalarimizga, keng jamoatchilikka sodda qilib

tushuntirib berish va ularni yangi hayot, zamon talablariga javob beradigan, jamiyat qurishning faol va jo'shqin ishtirokchilariga aylantirishdan iborat".(I. 2.-3)

2016 yil Sog'lom ona va bola yili davlat dasturida Prezident o'zbek xalqi uchun sog'lom bola, sog'lom avlod orzusi azaliy intilish ekanligini, ota-bobolar ham insonning nasl-nasabiga, yetti pushtining tozaligiga va avlodning sog'lig'iga juda katta e'tibor berganini ta'kidlab o'tdi. "Ana shunday muhim hayotiy qadriyatni jamiyatimizda yanada chuqur qaror toptirish, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash borasidagi ishlarimizni yanada yuksak bosqichga ko'tarish maqsadida men kirib kelayotgan yangi – 2016-yilni yurtimizda Sog'lom ona va bola yili, deb e'lon qilishni taklif etaman" {I.2.5.} Jamiyatimizga yuqori malakali, bilimdon, madaniyatli o'z kasbining mohir ustasi bo'lish tarbiyachi-pedagoglar ko'proq talab qilinmoqda. Shunga ko'ra, mamlakatimizda shu xususda qabul qilinayotga qarorlarida kadrlar tayyorlash masalasiga katta ahamiyat berilmoqda. Ular haqida g'amho'rlik qilinmoqda.

Ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholining hayot darajasi va sifatini yanada oshirish bilan bog'liq masalalar bundan buyon ham e'tiborimiz markazida bo'lib qoladi. 2016 yilda ijtimoiy sohaga Davlat byudjeti jami xarajatlarining 59,1 foizi yoki o'tgan yilga nisbatan ko'proq mablag' ajratiladi. Jumladan, ta'lim-tarbiya sohasiga davlat byudjeti xarajatlarining 33,7 foizi, sog'liqni saqlash tizimiga 14 foizi yo'naltiriladi. Ta'lim-tarbiya sohasini ta'minlash va rivojlantirish sarf-xarajatlari o'tgan yilga qaraganda 16,3 foizga, sog'liqni saqlash tizimida 16 foizga ko'payadi. { I.3.6.}

Maktabgacha ta'lim tarbiya muassasalari xalq maorifi sistemasida tarbiyani amalga oshiruvchi ilk bo'g'in hisoblanadi. Bolani har tomonlama garmonik rivojlantirish uchun esa maktabgacha bo'lgan muassasalarda ta'lim- tarbiya sifatini ko'tarish zarur.

Pedagogning bolaga o'z shaxsiyati bilan ta'sir ko'rsatishi to'g'risidagi g'oyani o'z davrida maktabgacha ijtimoiy tarbiya sistemasining yaratuvchilaridan biri G.A.Arkin rivojlantirgan edi. Uning pedagogik asarlarida quyidagi: "Biz

uchun tarbiyachining o'ziga hos gapirish intonatsiyasidan boshlab imo-ishoralari, tabassumi harakatlaridagi bo'lgan barcha hususiyatlarini ko'rish va payqay bilish g'oyat muhimdir ”{II.18.76.}

Bola qalbiga chuqur kira oladiga va u yerda individual yashirin qadriyatlarni topa biladigan, ularni ro'yobga chiqarishga amaliyotda qo'llanish mustahkamlanishi hamda takomillashuviga sabab bo'la oladigan har qanday rivojlanish faktori tarbiyachi ko'rsatadigan ta'sir oldida ojizdir degan fikrlar ta'kidlangan. Mamlakatimizda xalq ta'limining birinchi bo'g'ini uchun mutaxassis kadrlar tayyorlash masalasiga katta ahamiyat berilmoqda. Negaki, endilikda tarbiyachilar shu jumladan maktabgacha tarbiya tashkilotlari uchun oddiy ijrochilik kamlik qiladi. Barga sari o'z vazifasiga moslashish yangilikni tez payqay bilish tashabbuskorli mas'uliyatni o'z ustiga qo'rqqmasdan o'la bilishga tayyorgarlik o'z oldiga vazifa qo'yish va uni mukammal bajara olish ishlashga o'rganish istagi kabi ishchanlik sifatlarining ahamiyati ortmoqda.

Bola shaxsi rivojida tarbiyachining roli o'z navbatida tarbiyachining yetakchilik rolini yuzaga keltiradi. Bu har bir bola shaxsini shakllantirishda uning gardanidagi mas'uliyatdir. Tarbiyachi o'z shaxsiyatida bolalar qanday muayyanlikni ko'rishmoqda, uni o'zlarich kim sifatida qabul qilishmoqda, uning shaxsiyatidagi qaysi shaxsi xususiyatlarini o'zlari uchun mo'ljal qilib olishmoqda-bularning barini bilmog'I lozim. Boshqacha aytganda tarbiyachining „men”I qanday qilib bolalar mulkiga aylanmoqda, bolalarning o'zlariga xos bo'lga xususiyatlariga nisbatan qay ravishda-taqlid etilmoqda ekanligi hamda tarbiyalanuvchilar uchun qanday ahamiyat kasb etmoqdaligini tushunib yetmog' zarur.

Atoqli rus pedagogi A.S.Makarenkoning „Agar bola yomon tarbiyalangan bo'lsa, buning uchun mutlaqo tarbiyachi ayibdordir. agar boli yaxshi bo'lsa bunday holda ham u o'z bolaligi uchun, tarbiyachisi oldida qarzdordir”, -degan fikri hozir ham axamiyatini yo'qotgan emas. {II.43.- 17}

Bolalar maktabgacha tarbiya muassasalari uchun mutahassislar tayyorlash ishida hali maktabgacha tarbiya muassasalari bo'lajak xodimlarni kasbga

tayyorlash muayyan sistemasi hamma joyda ham maqsadga muvofiq tashkil topgan deb bo'lmaydi. Bu keksa tarbiyachi uchun ham, naqiron tarbiyachi uchun ham g'oyat murakkabdir. Tarbiyachining yo'li og'ir va murakkab, biroq shunchalik ko'p shodlik va qoniqish xosil qiluvchi bundan boshqa kasbni toppish oson emas.

Bo'lajak tarbiyachilarning axlaqiy ideallari qanday bo'lishi ko'p jihatdan oliy o'quv yurti hamda pedagogic bilim yurti o'qituvchisining ijodiy tashabuskorligi va bilimi, istak va mahorati hozirgi zamon talabi darajasida bo'lishiga bog'liq.

Ba'zan, endigina oliy maktab yoki pedagogika bilim yurtini bitirgan yosh mutahasislarga maktabgacha tarbiya muassasiga mudirlik qilishni tavsiya etadilar (shunday holler ham uchrab turadi). Endigina faoliyat boshlagan rahbarni odamlar bilan ishlay olamanmi, ishni qanday tashkil etish kerakki, mazkur muassasa xodimlari hamnafas jamoaga aylansin, jamoa a'zolari o'rtasida xayri xona munosabotlar o'rnatish uchun nima qilishim kerak, mehnat faoliyatimni qanday tashkil etishim kerak kabi savolar hayajonga soladi. Bu savollarga javob topishi uchun yosh xodim eng avvalo asosiy diqqatini ta'lim- tarbiya jarayonining asosiy vazifalariga jalb qilgan holda undagi muhim ahamiyat kasb etuvchi maydatchuylarni ham nazaridan chetda qoldirmasligi lozim.

Bolalar tabiya muassasalariga tarbiyachilar tayyorlashdagi tajribalarning ko'rsatishicha, "O'zbekistonda maktabgacha tarbiyani tashkil etish va raxbarlik qilish" kursini o'tishda asosiy etiborni bog'cha mudiri, katta tarbiyachi hamda viloyat, shahar va tumanlar maktabgacha metodika kabinetlar ishini tashkil etish bo'limlariga ko'proq qaratmoq lozimligi ko'zda tutilgan holda, ularning har birlarining kasbiy vazifalarini o'zaro bog'likda yagona bir jarayonning turli tomonlari sifatida aniq va ravshan ochib berishni maqsad qilib qo'ygan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi:

Maktabgacha ta'lim muassasalarida metodik ishlarni tashkil etish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish va uning ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

1. Mavzuga oid abiyotlar pedagogic va psixologik adabiyotlar taxlili
2. Maktabgacha ta'lim muassasalarida metodik ishlarni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari
3. Maktabgacha ta'lim muassasalarida metodik ishlarni tashkil etish omillari
4. Maktabgacha ta'lim muassasalarida metodik ishlarni tashkil etish shakl, metod va vositalari
5. Tadqiqot natijalarini miqdoriy va sifat jixatdan taxlil qilish
6. Xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish

Tadqiqotning ob'yekti:

Maktabgacha ta'lim muassasalarida metodik ishlarni tashkil etish jarayonlari.

Tadqiqot predmeti:

Maktabgacha ta'lim muassasalarida metodik ishlarni tashkil etish shakl, metod va vositalari

Tadqiqot metodlari:

Pedagogik, psixologik, metodik, ilmiy-tadqiqot va ilmiy-texnikaviy manbalarni nazariy taxlil etish; anketa so'rovnomalari o'tkazish, kuzatish, suhbat, tajriba-sinov ishlari, tadqiqot natijalarini umumlashtirish va matematik-statistik uslublarini qo'llash.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati.

Har bir bo'lajak tarbiyachi o'z ixtisosligidan o'quv –tarbiyaviy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borish uchun zarur bo'lgan metodik ishlarni tashkil etish shakllarini va pedagogik bilimlar va ko'nikmalarning umumiy hajmini, tarbiyachiga xos kasbiy fazilatlarni egallashi lozim.

**I BOB. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA METODIK
ISHLARNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI – PEDAGOGIC MUAMMO
SIFATIDA.**

1.1. Metodik ishlarni tashkil etish va rahbarlik qilish

Pedagogik kengash jamoa pedagoglari fikrini ifodalovchi, bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy masalalarni kollegial ko'rib chiqadigan doimiy ishlovchi organ, metodik mahorat maktabi va ilg'or tajriba minbaridir.

Maktabgacha muassasa mudiri pedagogik kengash raisi hisoblanadi.

Pedagogik kengashga bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlar darajasini oshirish, ularni hal qilish yo'llarini izlash, muassasa ish tajribasiga pedagogika fanining yutuqlari va ilg'or pedagoglar tajribasini joriy qilish, tarbiyachilarning pedagoglik mahoratini oshirish, ularning ijodiy faolligini rivojlantirish kabi masalalar kiritiladi.

Pedagogik kengash Xalq ta'limi vazirligi, Xalq ta'limi bo'limlarining maktabgacha ta'lim bo'yicha buyruq, instrukqiya, nizom va boshqa me'yoriy xujjatlarini; maktabgacha muassasaning yillik ish rejasini; bolalar sog'lig'ini mustahkamlash tadbirlarini; har bir yosh guruhi bo'yicha «Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya dasturi»ning sifatli bajarilishi jarayonini; ish tajribasiga joriy qilish maqsadida tarbiyachilarning ilg'or tajribalarini; maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berish-ning aktual masalalarini, tarbiyachilarning nazariy va metodik tayyorgarliklarini oshirish masalalarini va maktabgacha muassasa faoliyatining boshqa masalalarini muhokama qiladi.

Pedagogik kengash kun tartibini belgilashda barcha qatnashchilarni qiziqtiruvchi mavzularning kengligini, aktualligini ta'minlash zarur. Faqat shundagina pedagogik kengashda ish muhiti hukm suradi, masalalar muhokamasi sermahsul va faol bo'ladi.

Pedagogik kengash tarkibiga katta tarbiyachi, tarbiyachilar, musiqa rahbari, maktabgacha muassasaga xizmat ko'rsatuvchi shifokor, katta hamshira, kasaba uyushmasi qo'mitasining raisi, ota-onalar qo'mitasining raisi kiradi. Kengash yig'ilishiga jamoat tashkilotlarining vakillari, maktablar o'qituvchilari, maktabgacha muassasada tarbiyalanuvchilarning ota-onalari taqlif etilishi mumkin.

Pedagoglar pedagogik kengash tomonidan tasdiqlangan va maktabgacha muassasaning yillik ish rejasiga kiritilgan reja bo'yicha ishlaydilar. Pedagogik

kengash ishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan pedagoglar jamoasi muhokamasiga qo'yilgan masala qanchalik savodli va jiddiy tayyorlanganligiga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik kengashning yig'ilishi ikki oyda bir marta chaqiriladi, zaruriyat to'g'ilganda navbatdan tashqari yig'ilish chaqirilishi mumkin. Muhokamaga ko'pi bilan 2-3 masala qo'yiladi, pedagogik kengash ishdan tashqari vaqtda o'tqaziladi. Pedagogik kengash qarorining loyihasini ma'ro'zachi (bolalar bog'chasinin, mudirasi yoki katta tarbiyachi) oldindan tayyorlaydi.

Seminarlar pedagoglarning nazariy, metodik bilimlarini, mutaxassislik malakasini oshirishning keng tarqalgan shakli bo'lib, o'qituvchilar malakasini oshirish instituti va metodik kabinetlar tomonidan amalga oshiriladi.

Seminarlarning asosiy maqsadi – alohida metodika bo'yicha tarbiyachilarning bilimlarini chuqurlashtirish va tarbiya bo'yicha dolzarb masalalarini hal etishdir. Seminar o'quv tematika rejasi 1 yilga mo'ljallangan bo'lib, shahar, tumanda seminar oyda 1-2 marta ishdan ajralmagan holda, viloyat va respublikada esa 5-12 kunda ishdan ajralgan holda tashkil etiladi.

Seminarlar ish sifatini yaxshilash maqsadida ilmiy tekshirish instituti tomonidan o'quv tematikasining rejalari, seminar dasturi ishlab chiqilgan.

Seminar o'quv tematika mavzusini katta tarbiyachi va mudira tarbiyachilar bilan birgalikda tanlaydi, pedagogik kengash uni tasdiqlaydi, bu yillik rejada aks etadi, so'ngra metodist faol tarbiyachilar bilan birgalikda seminar ishining aniq rejasini ishlab chiqadi.

Seminar ishida ayrim bir mavzu yildan-yilga takrorlanmasligi kerak. Bu seminar qatnashchilarining qiziqishlarini pasaytiradi. Har bir seminarda quruq nazariyachilikqa yo'l qo'ymay, o'rganilayotgan materialni hayot bilan bog'lash kerak.

Seminar rejasi metod kabinetga ilib qo'yiladi. Seminar mavzulari taxminan shunday bo'lishi mumkin:

1. Ilk yosh va kichik yoshdagi bolalar psixofiziologik xususiyatlari (seminarni pediater vrach yoki psixolog olib boradi).
2. Turli faoliyat turlarida bolalarga individual yondashish.

3. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni vatanparvarlik va baynalmilalchilik ruhida tarbiyalash.

4. Tarbiyachining bolalar bilan o'zaro munosabatlari va h.k.

Seminar mashg'ulotlari tarbiyachining amaliy malakalarini o'stiruvchi ish shakli bo'lib, bunda: bolalar loy, applikatsiya, qurish-yasash, badiiy o'qish, ashula aytish, raqsga tushish va boshqa ishlarni amalga oshiradilar. Ular mutaxassis yordamida amaliy jihatdan saviyalarini o'stirib boradilar. Seminar mashg'ulotlariga mudira, katta tarbiyachi yoki tajribali tarbiyachi rahbarlik qiladi. Seminar mashg'uloti maxsus daftarga qayd qilib boriladi.

Tarbiyachilarning bilimlarini boyitish maqsadida yangi metodik va pedagogik adabiyotlar, sohaga oid jurnaldagi maqolalar o'rganilib, muhokama qilinadi. Maktabgacha ta'lim xodimlarning dunyoqarashlarini kengaytirish maqsadida esa shahar va tumanning diqqatga sazovor yodgorliklariga o'quv ekskursiyalari tashkil etiladi. Bir yilda 3-4 marta o'quv ekskursiyalar tashkil etiladi. Muzeylarga ekskursiya tashkil etilsa yanada yaxshi, chunki bundan olingan taassurotlar pedagoglar bilimini yanada kengaytiradi.

Vaziyat to'g'riganda metodist tomonidan yakkama-yakka maslahatlar o'tqaziladi. Uzoq joylardagi xodimlarga yozma ravishda beriladi.

Jamoa maslahati 1 oyda 1 marta o'tkazilib, oylik rejada aks etadi. Tumandagi tarbiyachilarni oldindan ogohlantiriladi, o'tkazish muddatini belgilab tuman shart-sharoitidan kelib chiqilgan holda o'tqaziladi.

Tarbiyachilarning g'oyaviy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va ishlash malakalarini o'stirish uchun turli mavzular bo'yicha ma'ruzalar o'tqaziladi. Bular siyosiy yoki pedagogik mavzularda bo'lishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim xodimlarining o'z ustida ishlashlari g'oyaviy-siyosiy saviyalarini oshirib borishdagi keng tarqalgan usuldir. Metodik ishlarni jamoa ish shakli bilan birgalikda olib borilsa, bilim manbayi boyib boradi.

Yillik rejada maktabgacha ta'lim bo'yicha ayrim nazariy masalalarni, maktabgacha talim dasturini, dasturiy-metodik materiallarni o'rganish

rejalashtiriladi. o'z ustida ishlashda faqatgina o'rganiladigan mavzular emas, balki undagi asosiy savollar, masalalar o'rganiladi adabiyotlar ko'rsatiladi.

Mudira kasaba uyushmasi raisi bilan birgalikda tarbiyachilar bilan o'z ustilarida ishlashni qanday tashkil etishi yuzasidan suhbatlashishi, yordam ko'rsatishi shart.

Bu tadbirlarning tizimli, aniq reja asosida olib borilishi goyat muhimdir. Tashkiliy-pedagogik vazifalarni amalga oshirishda jamoa uchun shart-sharoit, kerakli materiallar, bajaruvchi-javobgar shaxslar, ularni hisobga olib borish o'quv yilining boshida belgilanadi, buni mudira doimo nazorat qilib boradi.

Umumiy ota-onalar majlisida bolalar muassasasining butun ishi muhokama qilinadi, tegishli chora-tadbirlar ko'riladi. Ota-onalar majlisiga rais qilib ota-onalar qo'mitasining raisi belgilanadi.

Bolalar muassasalarida tashkil etiladigan ochiq eshiklar kuni g'oyat ahamiyatlidir. Bunda bog'chaning butun faoliyati ota-onalar tomonidan ko'zatiladi, yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar joyida hal etiladi. Bolalar muassasasining barcha xodimlari bunga tayyorgarlik ko'radilar.

Bola tarbiyasida qiynalgan ota-onalar uchun yakkama-yakka suhbatlar tashkil qilinadi, bunda guruh tarbiyachisi va bog'cha mudirasi masalalarni ilmiy asoslangan holga hal etmog'i lozim. Maslahatlar qisqa, aniq shaklda olib boriladi, ayniqsa guruhlarda «ko'chirma papka»lardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ota-onalarga yaqindan yordam berishda kutubxona tashkil etish ahamiyatlidir. Bola tarbiyasiga oid kitoblar ota-onalarga katta yordam beradi, kitoblar bog'cha mudirasi, metodist va tarbiyachilar tomonidan tanlanadi. Adabiyotlar ro'yxati hisobot tarzida olib boriladi.

Pedagogik tashviqot ishlaridan eng qulayi ota-onalar burchagidir. Bu ota-onalarga bola tarbiyasiga hamda muassasa ishiga ijodiy yondoshishga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasining xujjatlari. Bolalar bog'chasining Nizomiga muvofiq maktabgacha ta'lim muassasasida muayyan xujjatlar olib borilishi kerak.

Buyruqlar daftari bolalar bog'chasiga tartib raqami berilgandan keyin rasmiylashtiriladi. Uning hamma sahifalari raqamlanadi, oxirida uning necha varaqligi ko'rsatiladi.

Bolalarni hisobga olish daftari (Shakl DP-2) bolalar va ota-onalar haqidagi ma'lumotlarni, bolalarning uy manzili, bog'chaga kelgan va undan (butunlay) ketgan sanalarni o'z ichiga oladi.

Har bir guruhda bolalarning har kungi davomati (bog'chaga kelishi) hisobga olinadi (Shakl DP-3).

Shuningdek, xodimlarning, bolalarning shaxsiy xujjatlari; tibbiy kartalari; xodimlarning ish jadvali, ularning ish vaqtini hisobga olish tabeli; maktabgacha tarbiya muassasasiga yo'l-yo'riq beradigan, uni tekshiradigan va nazorat qiladigan kishilarning mulohaza va takliflarini yozish daftari; sanitariya jurnali; pedagogika, ishlab chiqarish yig'ilishlari va ota-onalar majlislarining bayonnomalari; inventar va oziq-ovqat mahsulotlarini hisobga olish daftari; muassasaning yillik, oylik ish rejasi va boshqalar olib boriladi.

1.2. Maktabgacha ta'lim muassasalari va metodik ishlarni tashkil etish imkoniyatlari

Maktabgacha ta'lim muassasasi uzluksiz ta'lim tizimining birinchi bosqichi, maktabgacha tarbiya Davlat jamoat tizimining asosiy bugini, jamiyatning eng muxim ijtimoiy bo'limidir. Maktabgacha tarbiya muassasasi. Maktabgacha yoshidagi bolalarni tarbiyalash va rivojlantirishda ularni maktabga tayyorlashda yetakchi rol o'ynaydi.

Maktabgacha tarbiya muassasasi oila va jamiyatning bolalarga gamxo'rlik qilish va milliy va mintaqa xususiyatlarni xisobga olgan xolda har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash va rivojlantirishga bo'lgan extiyojni qondirish maqsadida tashkil etiladi.

Maktabgacha tarbiya muassasasi mustaqil ravishda, o'z tashabbusi bilan o'z faoliyatiga taaluqli, agar ular qonunchilikka pedagog prinsiplarga moyillik qilmasa har qanday qaror qilishga xaqlidir.

Maktabgacha tarbiya muassasasi tarbiyaviy ta'limiy ishlar sifati bolalar va ota-onalar xuquqiga jamiyat va Davlat manfaatlariga rioya qilish uchun masuldir.

Maktabgacha tarbiya muassasasi mehnat jamoasi xalqchilik asosida o'z-o'zini boshqarish prinsipiga muvofiq. Uning jamiyat faoliyati bilan bog'liq birga masalalarni hal qiladi. { 1.23. 7. }

Maktabgacha tarbiya muassasalarining asosiy tiplari quyidagilardan iborat:

- A) bolalar yashilari;
- V) bolalar yashil bog'chalari;
- S) bolalar bog'chalari;
- G) maktab bolalar bog'chalari.

Etim bolalar va ota-onasining qarovsiz qolgan bolalar uchun bolalar uyi, maktabgacha tarbiya bolalar uyi, maktab internatlari va aralash tipdagi bolalar uylari xuzurida maktabgacha tarbiya guruxlari tashkil qilinadi. Ularni maxalliy tegishli qonun-qoidalar bilan belgilanadi.

Maktabgacha tarbiya muassasalari iqtisodiy xuquqiy maqomi quyidagi guruxlarga bulinadi:

1. Davlat muassasalari xalq deputatlari maxalliy sovetlari, idoralar, korxonalar muassasalari tashkilotlar qaroriga tashkil etiladi. Tegishli byudjetdan korxonalar mablagi xisobidan pul bilan ta'minlanadi;
2. Shirkatchilik muassasalari «shirkatchilik to'g'risida» gi qonunda ko'zda tutilgan tartibda tashkil qilinadi.
3. Aksionerlik muassasalari amalda qonunchilikda belgilangan tartibda aksionerlik korxonalari, tashkilotlari mablaglari xisobiga tashkil qilinadi va faoliyat ko'rsatadi.
4. Jamoat muassasalari yotoqxonalar, turar joylardan foydalanish idoralari madaniy va savdo markazlarida, shuningdek, oila ehtiyojlaridan kelib chiqqan xolda boshqa ko'rinishlarda tashkil etiladi.
5. Oilaviy muassasalar, shirkatchilik xususiy mehnat faoliyat to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq bir yoki bir nechta oila tomonidan tashkil qilinadi va faoliyat ko'rsatadi.

6. Aralash muassasalar. Davlat shirkatchilik korxonalar, muassasalar tashkilotchilik uyushmalari asosida va oilalarning shartnomalari asosida tashkil etiladi, faoliyat ko'rsatadi.

7. Uy masalalari asosiy maktabgacha tarbiya muassasalarning filyallari sifatida tashkil etiladi.

Shaharda bo'lgani kabi qishloq joylarida ham extiyojga qarab boshqa shu tizimlardan birlashgan o'quv tarbiya muassasalari va umumiy hamda maxsus ahamiyati molik (yo'nalishdagi) turli tipdagi guruxlar tashkil qilinadi. Maxsus ahamiyatga molik yo'nalishdagi maktabgacha tarbiya muassasalari nuqsonlarini oldini barvaqt olish, bolalardagi ikkilamchi va keyin uchraydigan nuqsonlarga barham berish maqsadiga tashkil qilinadi. Bu yo'nalishdagi muassasalar umumiy tarbiyaviy masalalarni xal qilish bilan bolalarni rivojlantirishdagi tegishli nuqsonlarni bartaraf qilishga va ommaviy yoki maxsus nuqsonlarni va maxsus maktabda tayorlashga qaratilgant Davlat to'g'irlash ishlarini amalga oshiradi.

Aqliy va jismoniy rivojlantirishda nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun:

- nutqi buzilgan (eshitish qobiliyati saqlangan);
- eshitish qobiliyati buzilgan;
- kurish qobiliyati buzilgan;
- tayanch harakat a'zolari buzilgan;
- Ruxiy rivojlanishda orqada qolayotgan;
- aqliy rivojlanishda orqada qolayotgan;
- sil kasalligiga chalingan;
- tez-tez kasallikka chalinadigan;
- sarik (virusli gippati) bolalari uchun;
- agar extiyoji tugilsa boshqa yo'nalishdagi maktabgacha muassasalari tashkil qilinishi mumkin.

Turli tipdagi maktabgacha tarbiya muassasalari Uzbekiston Xalq ta'limi vazirligi hamda sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan instruktiv derektirv xujjatlarida yuriqnomalar asosida ish yuritilgan. Bular maktabgacha tarbiya to'g'risidagi konsesqiya va Nizomda belgilab berilgan.

Maktabgacha tarbiya muassasalari loyixa bo'yicha yoki moslashtirilgan SNIP normalariga yongin xavfsizligi qoidalariga javob beradigan va ob-xavo sharoitida ekologik vaziyatni tarkib topgan milliy xisobga oladigan binoda tashkil etiladi. Maktabgacha tarbiya muassasasining sig'imi 320 urindan oshmasligi kerak. Umumiy yo'nalishdagi maktabgacha tarbiya muassasalari uchun 140 urinli maxsus ahamiyatga molik maktabgacha tarbiya muassasasi uchun 90-120 urinni muqobil xisoblash zarur. Loyixalashga qo'yiladigan talablar: binolar shunday joylashishi kerakli, bino derazalari ufq tomonda soyabonlar tushishi, ko'kalamzor erlarga suv bilan o'ynash uchun fontanchali xovuzchalar bo'lishi, chiqarishaklang va o'tish joylarini qattiq narsa qoplash suv basseyni 0,25 metr chukurlikda, ko'cha shovqinidan, uzoqda, maktabga yaqin joyda, yongindan qarshi talablarga to'liq javob beradigan, iqlimiy xususiyatini xisobga olgan xolda loyixalashtiriladi.

Maktabgacha tarbiya muassasasiga amaldagi qoidaga binoan bolalarga meditsina xizmati ko'rsatish xuquqiga ega. Bolalarga meditsina xizmati ko'rsatish, maxsus biriktirilgan sog'liqni saqlash bo'limlari yoki idorasi qaram bo'lgan tegishli muassasasini, meditsina xodimlari tomonidan amlga oshiriladi.

Meditsina xodimlar bog'cha ma'muriyati bilan bir katorada bolalarning salomatligi jismoniy rivojlanishi davolash, profilaktika tadbirlarini o'tqazish, sanatoriya gigiyena normalariga rioya qilishi, tarbiyalanuvchilarning rejimi va ovqatlanish sifati ularning jismoniy va akliy yuklamalarning me'yoriy uchun mas'uldir.

Meditsina xodimlari faoliyatini nazorat qilish maxalliy sogligini saqlash bo'limlari zimmasiga yuklatiladi.

Maktabgacha tarbiya muassasasi kimga buysunishidan qat'iy nazar xalq deputatlari maxalliy soveti ruyxatidan utilida. Maktabgacha tarbiya muassasasi ruyxatdan utgach unga tartibli soni beriladi va yuridik shaxs xuquqiga ega bo'ladi.

Maktabgacha tarbiya muassasalarini kaytadan tuzish (kushish, olish, birlashtirish, ajratish, bulinish, kayta tashkil etish) xalq ta'limi bo'limlari korxona, muassasa, tashkilot tavsiyasiga ko'ra xalq deputatlari, maxalliy sovetlari qarori asosida amalga oshiriladi. U bog'cha mexnat jamoasi va xalq ta'limi kengashi

bilan kelishilgan bo'lishi lozim. Maktabgacha tarbiya muassasasi turlicha: tipga, tuzilishga, qarab shtat birliklarini maqsad okladlarini tasdiqlaydi.

Ota-onalar kumitasining asosiy vazifalari, bolalar bog'chasi Ustavida ko'rsatilishi berilgan.

Maktabgacha tarbiya muassasasi Uzbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi tomonidan tasdiqlangan kup variantli ta'miniy dasturlardan birini tanlash xuquqiga ega. Maktabgacha tarbiya muassasasi tarbiyaviy ta'limning muassasa bulib, soqial vazifalar bilan bir katorda konsepsiya, Ustav va Dasturga muvofiq malakaviy tarbiya va ta'lim berishni ta'minlaydi. Maktabgacha tarbiya muassasasi uz dasturi va metodikasi ishlab chiqish va amaliy faoliyatida qullash xuquqiga ega. Ularni tasdiqlangan tarbtibi Respublika Xalq Ta'limi Vazirligi tomonidan belgilanadi. Maktabgacha tarbiya muassasasi tarbiyachisi bolalarni tarbiyalash va o'qitish bo'yicha qo'llanmalarni va metodikani erkin tanlash xuquqiga ega. Bolalarni rivojlantirish va maktabgacha tayyorlash tayanch sinov dasturi bo'yicha talablarni tanishtirish.

Tajriba sinov ishlarini tashkil etish, mustaqil ish olib borishi bo'yicha ishlarini tashkil etish tushuntirish. Maxsus ahamiyatga molik maktabgacha tarbiya muassasalarini tashkil qilish va rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni esa yangi tipdagi yo'nalishidagi maktabgacha tarbiya muassasalarini tuzish Respublika Xalq Ta'limini boshqarish va sog'liqni saqlash organlari tomonidan belgilanadi.

Maxsus ahamiyatga molik maktabgacha tarbiya muassasalari ish xususiyati, ularga qabul qilish qoidalari, bolalarg at'lim berish va ularga tarbiyalashni tashkil qilish Uzbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi hamda Uzbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi tomonidan tasdiqlangan tegishli yuriqnomalar bilan aniqlanadi.

1.3. Maktabgacha tarbiya muassasasi ishini baholash me'zonlari

Maktabgacha tarbiya muassasasi maxsus loyixa bo'yicha qurilgan yoki moslashgan SNIP normalariga, yongin xavsizligi qoidalariga javob beradigan va ob-xavo sharoitini, ekologik vaziyatini, tarkib topgan milliy an'analarni xisobga oladigan binoda tashkil etiladi.

Maktabgacha tarbiya muassasasining sigimi, odatda 320 o'rinli bo'lishi kerak. Umumiy yo'nalishdagi maktabgacha tarbiya muassasalari uchun 140-160 o'rinni, maxsus ahamiyatga molik maktabgacha tarbiya muassasalari uchun 90-120 o'rinli muvofiq deb xisoblash zarur.

Maktabgacha tarbiya muassasasi amaldagi normativlarga muvofiq yumshoq va qattiq sport jixozlari, meditsina apparati, ta'limning texnik vositalari, o'quv ko'rgazmali qo'llanmalar hamda o'yinchoqlar bilan ta'minlanadi. Maktabgacha tarbiya muassasasini jixozlash ruyxatiga milliy anjomlar ham kiradi. Maktabgacha tarbiya muassasasi ish tartibi ijroiya komitet xalq ta'limi boshqarmas bo'limi yoki qaramogida maktabgacha tarbiya muassasasi bo'lgan korxona, muassasa, tashkilot tavsiyasiga muvofiq xalq ta'limi kengashi, maktabgacha tarbiya muassasasi kengashi bilan kelishilgan xolda xalq deputatlari maxalliy sovetlari qarori bilan belgilanadi.

Maktabgacha tarbiya muassasalari yoki uning ayrim guruxlari xaftasiga 5-6 va 7 kun kunduzgi va bolalar sutka mobaynida bo'ladigan, bir yoki ikki kunlik dam olish kunlari bilan, ushningdek, xodimlarga sirgaluvchi grafik bo'yicha dam olishkuni beriladigan rejimda ishlashlari mumkin.

Ota-onalarning xoxishlariga ko'ra maktabgacha tarbiya muassasasida kuni uzaytirilgan kun, ushningdek, shanba yakshanba va bayram kunlari rejimda ertalab va kechki vaqtda ishlovchi navbatchi guruxlar ochilishi mumkin.

Maxsus ahamiyatga molik maktabgacha tarbiya muassasasining faoliyat rejimi zarur tugshrilash tarbiyali ishlar olib borishni xisobga olib borgan xolda belgilanadi.

O'zbekiston ijtmioiy maktabgacha tarbiya muassasasi xalq etish maktabgacha tarbiya muassasalarining har xil turlarini tashkil etilgan ham aloqadordir. Ular tiliga ko'ra (uzbek, qozoq, rus, tatar, koreys va shu kabilar) farqlanishi va bu bog'chalarda ta'lim tarbiyaning milliy an'anlariga asoslanib kurilishi lozim.

Bolalar bog'chalari bolaning bog'chada bo'lishiga qarab bir necha soatni, binecha kunni:

Tarbiya vazifalari ko'ra esa: ijodiy, yordamchi, umumiy, sotsial moslashtirilgan bo'ladi.

Qishloq va shahar bog'chalari: mavsumiy bolalar bog'chasi bolalarni jamlashiga ko'ra turli yosh yoki yoshli guruxlar:

Mablag' bilan ta'minlashiga qarab: davlat, idora, konspektiv, xususiy va xokazolar.

Ijtimoiy maktabgacha tarbiya muassasalari qishloqlari bog'chasiga 90-100 shahar bog'chasi 140-170 o'rindan olmasligi ko'zda tutiladi.

Maktabgacha tarbiya muassasasi, shu jumladan, uning ayrim guruxlari ishning davomiyligi, boshlanishi va tugashi ota-onalarning ehtiyojini xisobga olgan xolat belgilanadi. Ammo 6³⁰ dan barvaqt bo'lmasligi kerak.

Maktabgacha tarbiya muassasasida ota-onalar arizasi bo'yicha xalq deputatlari soveti qarori bilan shu jumladan, shartnoma va xo'jalik xisobi asosida ish 6 soatdan kam davom etilgan qisqa muddatli guruxlar; ota-onalar bolalarini 1-2 soatga qoldiradigan guruxlar; sayr guruxlari; jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish guruxlari; musiqa estetik va badiiy tarbiyalash, aqliy va jismoniy rivojlanishdan orqada qolgan bolalar uchun xo'jalik xisobi asosida ishlaydigan guruxlar ochilish mumkin. Bunda maktabgacha tarbiya muassasasi muntazam qatnaydigan bolalarning manfaatlari kamsitilmasligi lozim. Maktabgacha tarbiya muassasasining ta'lim tili Uzbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi qonunga muvofiq belgilanadi.

Ota-onalar o'z bolalarini maktabgacha tarbiya muassasasi tarbiyachilarini ilgaridan ogohlantirilgan xolda o'zlari uchun qulay paytda olib kelishlari va olib ketishlari mumkin. Shu bilan birga, ota-onalar maktabgacha tarbiya muassasasida bolalar xayotining fiziologik asoslangan kun tartibiga rioya qilishlari va o'quv tarbiya jarayonini buzmasliklari lozim.

Maktabgacha tarbiya muassasasida bolalarni ovqatlantirish uning ish kuni davomiyligini xisobga olgan xolda va belgilangan pul va tabiiy normalariga muvofiq tashkil qilinadi. Bolalar 6 va undan kam soat mobaynida bo'ladigan

guruxlarda ovqatlanishni tashkil qilish, uning shakli va necha martaligi ota-onalar bilan kelishuvi bilan belgilanadi.

Bu guruxlarda ovqatlantirish uchun pul normalari xalq deputatlari, sovetlari va qaramog'ida maktabgacha tarbiya muassasasi bo'lgan korxona, muassasa, tashkilot xo'jalik xisobi asosida tashkil qilingan guruxlarda ota-onalar tomonidan belgilanadi.

Maktabgacha tarbiya muassasasi xalq ta'limini boshqarish organlari yoki qaramog'ida ushbu maktabgacha tarbiya muassasasi bo'lgan korxona, muassasa, tashkilot tomonidan komplektlanadi. Maxalliy boshqarish organlari qarori bilan komplektlashning boshqa tartibi qabul qilinishi mumkin.

Bolalarni maktabgacha tarbiya muassasalariga va maxsus ahamiyatga molik maxsus guruxlarga chiqarishlash Respublika, Viloyat, Shahar, tuman meditsina pedagogika komissiyalari, sanatoriya tipidagi, maktabgacha tarbiya muassasalariga esa xududiy davolash profilaktika muassasa.

Bolalarni davlat maktabgacha tarbiya muassasidan chiqarish xalq ta'limi kengashi tomonidan quyidagi xolatlarda bolaning mazkur maktabgacha tarbiya muassasasida qolishiga to'sqinlik kiluvchi meditsina xulosasi asosidla; bola maktabgacha tarbiya muassasasiga sababsiz bir oydan ko'proq vaqt mobaynida kelmasa, unga xizmat ko'rsatish uchun xaq to'lashning belgilangan muddatdan ikki hafta o'tib ketsa, ota-onalar yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslar xoxishiga qarab amalga oshiriladi. Ota-onalar bolaning chiqarilishi haqida 7 kun oldin xabardor qilinadilar.

Ota-onaning ish joyi o'zgarishi munosabati bilan bolani maktabgacha tarbiya muassasasidan chiqarish agar bu shartnomada ko'rsatilmagan bo'lsa, qat'iyan man etiladi.

Maktabgacha tarbiya muassasasida bola o'rnini saklab qolish tartibi Uzbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligiining 1991 yil 18 apreldagi «Maktabgacha tarbiya muassasalariga bolarni joylashtirish ota-onalarning kanoatlantirilmagan arizalarini xisobga olish va chiqarishlanmalar berish tartibi to'g'risida» gi yuriknomasidan belgilab berilgan.

Davlat makomiga ega bo'lmagan maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalarni qabul qilish va chiqarish, va ular uchun urinlarni saklab qolish tartibi bolalar bog'chasi va ota-onalar o'rtasida shartnoma asosida aniqlanadi.

Umumiy yo'nalishdagi bolalar yaslilariga 2 oydan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar qabul qilinadilar, bolalar bog'chalarida 3 yoshdan 7 yoshgacha yasli bog'chalariga 1 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar qabul qilinadilar.

Maktabgacha tarbiya muassasasining umumiy yigilishi qaroriga ko'ra guruxlar bir xil yoshdagi bolalar bilan yoki turli yoshdagi bilan komplektlanishi mumkin /bunda bir guruxda ikki aralsh yoshdagi bolalar yoki kichik yoshdagilar katta yoshdagilar bilan birlashishlari mumkin; bunda boshqa variantlarning bo'lishi ham extiomldan xoli emas/.

Maktabgacha tarbiya muassasasiga qabul qilinayotgan bolalarning yosh trkibi va sutka davomida ishlaydigan guruxlar umumiy yiligish qarori bilan belgilanadi.

Umumiy yunealishdagi maktabgacha tarbiya muassasasidan guruxlarning bolalar biloan tuldirilishi:

1 yoshgacha – 10 bola;

1 yoshdan 3 yoshgacha – 15 bola;

3 yoshdan yukori – 20 bola.

Guruxlarni yangi bolalar va boshqa yosh gurxlaridan kuchirish chiqarishi bilan komplektlash o'quv yili /avgust oyida/ amalga oshiriladi, bolalar bushagan urinlarga qarab qabul qilinadi.

Yangi qabul qilinayotgan bolalarni va kichik maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni kuniktirish maqsadida ular mazkur yosh guruxlariga asta-sekin 1 oy mobaynida kuchiriladilar.

Tarbiyachilar va ota-onalarning etishi normalariga asoslangan munosabatlari amaldagi qonunchilik va bola maktabgacha tarbiya muassasasiga qabul qilinayotganda tomonlarning uzaro kelishuviga binoan tuziladi. SHartnoma bilan boshqariladi. SHartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilmasligi yuzasidan xalq ta'limi kengashiga yoki sudga shikoyat bilan murojaat qilish mumkin.

Maktabgacha tarbiya muassasasi tarbiviy ta'limiy muassasa bulib, vazifalar bilan bir katorda bolalarga maktabgacha tarbiya konqepqiyasiga asoslangan uz Ustavi va Dasturiga muvofiq malaka'iy tarbiya va ta'lim berilishini ta'minlaydi.

Maktabgacha tarbiya muassasasi bolalarning tarbiyalash va ta'lim berish bo'yicha aniq vazifalarni tegishli dasturiy metodik xujjatlar, maktabgacha tarbiya muassasasining Ustavi bilan belgilanadi.

Maktabgacha tarbiya muassasalari O'zbekiston Respublikasi Vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan ko'p variantli taxminiy dasturlardan birini tanlash xuquqiga ega.

Maktabgacha tarbiya muassasalari o'z (mualliflik) dasturi va metodikasini ishlab chiqarish va amaliy faolyaitida qullash xuquqiga ega. Ularni tasdiqlash tartibi Respublika xalq ta'limi tomonidan belgilanadi.

Maktabgacha tarbiya muassasasi tarbiyachisi bolalarni tarbiyalash va o'qitish bo'yicha qo'llanmalarni va metodikani erkin tanlash xuquqiga ega.

Maktabgacha tarbiya muassasasi tarbiyachilarning pedagogik metodlar va usullarni mustaqil ishlab chiqish va o'z pedagogik faoliyatida foydalanish imkoniyatlarini berish chiqarishi bilan ularning pedagogik ijodiyotga bo'lgan xuquqni ta'minlaydi.

Maktabgacha tarbiya muassasasi maktab bilan vorislik aloqalarini o'rnatadi va u bilan doim qo'llab quvvatlaydi. Maktabgacha tarbiya muassasasi o'z pedagogik faolyaitida quyidagi prinsiplariga og'ishmay amal qiladi. Bu prinsiplar:

- bola shaxsiga xurmat bilan munosabatda bo'lish asosiga quriladigan butun pedagogik jarayon, insoniylik yo'nalishlari bilan sug'orilgan bo'lishi;

- psixologik pedagogik fikr va aralash fanlarning zamonaviy yutuqlariga mo'ljallangan o'z-o'zini rivojlantirish zo'r berilishi;

- kadrlar tanlashda, bolalar va tariyaviy ta'limning ishlarni tashkil qilishda, agar ular Respublikada xalq ta'limi prinsiplariga zid bo'lmasa, ta'limining har qanday shakli va uslublaridan foydalanishdan mustaqillik terilishi;

- ota-onalarning maktabgacha tarbiya muassasasini kadrlar va bolalar bilan komplektlashda, bolalar xayoti va ovqatlanishining maqbul kun tartibini belgilash

va tashkil qilishda sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tqazishda dasturlar va metodikani tanlashda maktabgacha tarbiya muassasasi ishining boshqa asosiy va prinsipial masalalarini mustaqil xal qilishda ishtiroki ta'imlanishi lozim.

Maktabgacha tarbiya muassasasi o'z pedagogik vazifalarini xal qilish uchun pedagogik (metodik) kengash tuzadi. Kengash nizomiga muvofiq faoliyat ko'rsatadi. bolalar bilan tarbiyaviy ta'limiy ishni rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida maktabgacha tarbiya muassasasi kungillik asosida turli birlashmalar va o'quv tarbiya komplekslari (bolalar bog'chasi – maktab, bolalar bog'chasi-maktab-pedagogika bilim yurti, bolalar bog'chasi- maktab- oliy o'quv yurti va x.k.) tuzilishi shuningdek, ular tarkibiga kirishi mumkin. Ular faoliyatini ushbu birlashmalar yoki komplekslar xuquqidagi nizom bilan belgilanada.

Maktabgacha tarbiya muassasasi yuqori tashkilot ruxsati bilan tajriba sinov ishlarida ishtirok etishi, shuningdek, mustaqil ish olib borishi, tajriba sinov maydoni makomini olish uchun yukori tashkilotlardan uni ximoya qilishga xaqlidir.

Maktabgacha tarbiya muassasasi bolalarning xayoti, jismoniy va ruxiy sog'lomligi uchun har bir bolaning yoki shaxsiy xususiyatlariga mos keluvchi emotsional va tulaqonli rivojlanishi, bolalarni tarbiyalash va ta'lim berishning tanlangan tizimi samaradorligi uchun mas'uldir. Maktabgacha tarbiya muassasasida tarbiya jarayoni psixologik ta'minlash ruxshunos yoki psixologik xizmat tomonidan amalga oshiriladi.

Pedagogik jarayon barcha qatnashchilarning aniq xuquq va burchlari maktabgacha tarbiya muassasasining Ustavi, ichki mehnat kun tartibi qoidalari, mansab yo'riqnomalari, ota-onalar ko'mitasi haqida nizom bilan belgilanadi.

II BOB. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA METODIK ISHLARNI TADBIQ ETISHNING SHART- SHAROITLARI.

2.1. Maktabgacha ta'lim muassasalarida metodik kabineti ishlariga qo'yiladigan talabalar

Metodik kabinet 5 yilga mujallangan istiqbol rejaini tuzadi unda: partiya va xukumatimiz qaror-topshiriqlari, Xalq ta'limi Vazirligi va ittifoqdosh respublikalarining, shuningdek xalq ta'limi bo'limlari tomonidan maktabgacha tarbiyaga oid qarorlari nazarda tutiladi.

Yillik rejada metodik kabineti har o'quv yiliga mos faoliyat aks etadi.

Kvartal-oylik rejalarida - yillik rejadani vazifalar vaqt - bo'yicha taqsimlanadi.

Yillik reja - rayondagi metodik ishlarni bir tekis-mazmunli tashkil etilishini ta'minlash kerak. Bunda metodika ko'p e'tiborni o'quv ta'lim-tarbiyaviy ishlarni o'rganish, bog'chada metodik ishlarni tashkil etish va nazariy qilib borish, mudira, katta tarbiyachi-tarbiyachilarga o'yin faoliyati, mehnat, estetik, musiqa tarbiyasi bo'yicha yordam, m.t. muassasalarda kasallikni oldini olish va kamaytirishni, yasli gruppalarda, aralash gruppalarda, kam komplektni muassasalar ishini metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish vazifalarni bajaradi.

Rejada alohida urinli maqsadli, birlamchi yoki sistemali tekshiruv egallaydi. Tekshiruv shaklsini, tanlash, tekshiruv maqsadi va mazmuniga bog'likdir. Bu maktabgacha tarbiya muassasalari ishi bilan tanishishga yordam beradi.

Rejada maktabgacha tarbiya muassasalari soni va nomerlari ko'rsatiladi. hamma muassasalarni nazorat qilishi kerak. Metodika kabinetining vazifasi shu bilan yakunlanadiki, bu nazariy asoslangan xolla yordam berish. Metod kabinetda pedagogik tajribalarni ommalashtirishdan ilg'ori uni har tomonlama analiz qilib chiqish, tanlab olish, kerak.

Qimmatli tajriba faqatgina individual xolda emas, balki kollektiv asosda yaratilishi mumkin.

Pedagogik tajriba ko'p qirrali va bebaxodir. Ilg'or ish tajribalarini o'rganish va har qanday ilg'orlikni chuqur o'rganish muamodir.

Rejada ilg'or ish tajribalarni o'rganish, ommalashtirish, yangi tajribani ishlab chiqish va uni umumlashtirishni tashkil etishdan iborat.

Xalq, ta'limi bo'limi tomonidan aktiv sanaladi. Ularning vazifasi kurslar, seminar-praktikumlar, individual va gruppovoy konsultatsiyalar, ma'ruzalar, seminar majlislardan iboratdir.

Maktabgacha tarbiya xodimlarining ishlash masalalarini oshirish shakllaridan biri bu seminarlardir.

Seminarlar maktabgacha tarbiyaga doir eng muxim tomonlarni xal etiladi. Seminar temasini shahar, tuman, viloyat tomondan belgilanadi. Bu temalar seminar

uchun tema tanlaganda uning maqsadi, vazifalariga doir tematikasi aniqlanadi va bibliografiya tuziladi.

Doklad temalari seminar qatnashchilariga taqsimlanadi, har bir dokladchi o'z temasini ilmiy asosiy ochib beradi, o'z tajribalardan namunalar keltiradi.

Mudiralar uchun seminar temasini qyydagicha tanlash mumkin.

1. "Mudiraning metodik - tarbiyaviy ishlarga raxbarligi".

2. "O'yin faoliyatiga raxbarligi". Musiqa raxbarlariga esa;

1. "Maktabgacha yoshdagi bolalarni qo'shiq bilishlarini tashkil etish" va x.k.

Misollar keltirib uchtoman tajribasi asosida Maslaxatlar - yakkama yakka rejalashtirish metodi qayd qilib boriladi. Bu esa metodist ishida chiqarishlanma-maslaxatlarni temalar bo'yicha ishlab chiqishni, kamchiliklarni bir chiqarisha bartaraf qilishni belgilaydi.

Gruppa maslaxatlari esa metod kabinet rejaida rejalashtiriladi.

Maktabgacha tarbiya xodimlarini ishlash malakalarini oshirishda asosiy shakllardan biri metod birlashmalardir.

Metod birlashmalar muxokamalarida maktabgacha tarbiyaga oid eng aktual masalalar xal etiladi.

Metodik birlashmalar - pedagoglarning ijodiy aktivligini va izlanishlarini shakllantiradi, o'z ishlarini analiz qilishga va tashkiliy baxo berishga o'rgatadi, berilgan topshiriqlarga javobgarlik xissini; ishlash malakalarini doimo o'stirib borishga intiltiradi.

Metodik birlashmalar butun o'quv yili davomida;

sentyabrdan- maygacha o'z ishini olib boradi. U turli kategoriyadagi pedagog-tarbyachilar, musiqa raxbarlari, mudiralar uchun tashkil etiladi.

Katta rayonlarda buni ("kurs Aar" - bo'limchalar bo'yicha tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Har bir bo'limda 18-20 bolalar muassasalari kiradi.

Birlashmaning ishlash muddati Respublika maorif ministrligi tomonidan tasdiqlanadi. 2-3 oyda 1 marta o'tqaziladi.

Metodik birlashma tarkibini komplektlashda pedagoglarning iiii stajlari - ish malakalari xisobga olinadi. Agar mudiralar uchun bulcha - rayon katta bo'lsa oliy ma'lumotli, 5 yil va undan ortiq ish stajlari uchun

- o'rta va maxsus ma'lumotlari va ish staji kam bo'lgan mudiralar uchun.

Metodist uchun ham shunday tartibda.

Tarbiyachilar uchun turli yosh gruppalari bo'yicha shu o'quv yilida qaysi gruppada ishlagani xisobga olinadi.

Metod birlashmalar vistavkalar, ko'rgazmali qurollar va yangi metodik adabiyotlar vistavkalarini tashkil etish muximdir.

Metod birlashma ishini muvaffaqiyatli o'tishida xalq maorifi organi va metod kabinetining raxbarligi beqiyosdir.

Respublika, o'lka, oblast, metod kabinetlari metod birlashma raxbarining malakalarini oshirish ishini tashkil etadi. Ular uchun bir yidda 2-3 marta seminarlar indiviual edadi bu seminar metod birlashma tashkil etish va rejalashtirish va unga raxbarlik qilish, eng ilg'or ishlarni o'rganish ommalashtirish ishlari haqida bo'ladi.

Shahar, rayon xalq maorifi organlari metodika kabineti metod birlashmalar raxbarlariga yordam beradi, (reja tuzishda, daladlar tayyorlashda, ochiq ko'riklarni tashkil etishda, va ularni ta'lim- tarbiya ishlariga tatbik etish ahamiyatlidir.

Metod birlashma ishida aloxida diqqatni yangi materiallarni tanlash, mashgulotlar reja-konspektlarini ishlab chiqish, maqola va doilardan, vistavkalar tashkil etishga ajratish kerak.

Maktabgacha tarbiya bo'yicha tayyorlangan barcha qo'llanmalar yoki rekomendatsiyalar avvalambor. Maorif Ministliklariga boriladi, uni ko'rib chiqib, tasdiqlangandan so'ng b/b-ga tarkatiladi.

Metodik kabinet o'z oldidagi vazifalarni xal etishdagi Materialning mazmuniga, talablariga, ahamiyat berish kerak.

Seminarlarda yangi metodik adabiyotlar muxokama qilinadi. "Doshkolnoe vospitanie" Jurnal maqolalari, maktabgacha tarbiya maktabgacha ta'lim to'g'risidagi metodik ishlar ko'riladi, bayram ertaliklari programmalari ko'rib chiqiladi, muxokama qilinadi, metodik ko'rgazmalar tayrlanadi.

Mediko-pedagogik yig'ilishlar asosan ilk yosh gruppalarini uchun o'tqaziladi. Bolalarni anatomik-fiziologik, nerv psixik va aqliy jihatdan o'sishi muxokama qilinadi. 1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan gruppalarda har oyda, 2 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar gruppalarida kvartalda 1 marta o'tqaziladi. Bunda vrach, katta hamshira ham ishtirok etadi.

Ochiq tarbiyalar pedagogik ishni o'stirishda hamda tarbiyachilarning ishlash malakalarini o'stirishda muxim tadbir.

Bunda rejimning turli momentlari kollektiv asosida kuzatiladi va amal qilinadi.

Metodist raxbarlari berib turish, ishlovchilarni aktivlashtirish metodikasi bo'yicha so'zga tuzuvchi temalarga ahamiyat berish bo'yicha konsultatsiya berish.

Metodist metod birlashma ishiga nazoratni sistemali tashkil etsa, reja bajariladi.

Seminarlar.

Pedagogiklarning nazariy, metodik bilimlarini, mutaxassisligini bajarishning malakasini keng tarqalgan shaklidir. O'qituvchilar malakasini oshirish instituti va metodi kabinetlar tomonidan amalga oshiriladi.

Seminarlarning versiy maqsadi - aloxida metodika bo'yicha tarbiyachilarning bilimlarini chuqurlashtirish va tarbiya bo'yicha-aktual masalari.

Seminarlarning sifatida yaxshilash g'oyaviy nazariy savollar maqsadida. Maktabgacha tarbiya ilmiy tekshirish instituti o'quv temasini rejalari va m.t. yoshdagilarni tarbiyasini va o'qitish bo'yicha aktual seminar programmasini ishlab chiqdi.

Seminar o'quv tematika rejai 1 ishga muljallangan bo'lib, shahar-rayon seminar oyda 1-2 - marta ishdan ajralmagan xolda, oblast va respublika, esa 5-12 kunda ishdan ajralgan xolda tashkil etiladi.

Ilk yosh pedagogikasining asosiy muammolari. Seminarlar ish sifatini yaxshilash maqsadida. Ilmiy tekshirish instituti tomonidan - o'quv-temalarining rejalari, seminar programmasi ishlab chiqilgan.

Seminarining o'quv-tematik rejai 1 yilga muljallab tuziladi, shahar, rayon seminarlari oyda 1-2 marta ishdan ajralmas xolda, oblast, respublika esa. 5-12 kunda, m.t:

Muassasalarda esa o'rganilayotgan materialning mazmuniga qarab seminar qatnashishchilarilarini belgilaydilar.

O'quv tematikning boshqa katta tarbiyasi va mudira tarbiyachilar bilan birgalikda seminar mavzuni taynlaydi, ped sovet uni tasdiqlaydi, bu yillik rejada aks etadi, so'ngra metodist tarbiyachilarning aktivi birgalikda seminar ishining konkret rejainig ishlab chiqadi.

